



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETINING URGUT FILIALI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60540100 – Matematika
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60540100 – Matematika

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING URGUT FILIALI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MERAJOVA SHAHLO BERDIYEVNA

Buxoro davlat universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: SABUROV MANSUR

Gulf University for Science and Technology

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260079
Xulosa raqami	986
Xulosa sanasi	23.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING URGUT FILIALI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Samarqand viloyati, Urgut tumani, Vag'ashti ko'chasi, 13-uy. Guvohnoma: MAS № 0000315, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Matematika
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60540100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000315, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60540100 – Matematika
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60540100 – Mathematics
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60540100 – Математика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Matematik, matematika fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Samarqand viloyati, Urgut tumani, Vag'ashti ko'chasi, 13-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoiq / muvofoiq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoiq / qisman muvofoiq / muvofoiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filialida "Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar" fakulteti tarkibida "Biznesni boshqarish va aniq fanlar" kafedrasini tashkil etilgani hamda ushbu kafedra 60540100 – "Matematika" (kechki) bakalavriyat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida belgilangani aniqlandi. Kafedra faoliyatini rivojlantirish doirasida "Matematika" ta'lim yo'nalishini kunduzgi ta'lim shakli bilan bir qatorda kechki ta'lim shaklida ham amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, filial Kengashi qarori asosida kafedra faoliyati kechki ta'lim shaklining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan. Kafedra nizomi ishlab chiqilgan hamda uning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aniq belgilangan. Kechki ta'lim shaklida tahsil oluvchi, asosan ish bilan band talabalar uchun o'quv jarayonini moslashuvchan tashkil etishga qaratilgan tashkiliy qarorlarning oldindan qabul qilingani ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalashtirish, ichki sifatni ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60540100 – "Matematika" (kechki) bakalavriyat ta'lim dasturining mazmuni, maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari, kasbiy kompetensiyalari, o'quv reja tarkibi

hamda fanlar ketma-ketligi tizimli ravishda shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha zarur tashkiliy hamda me'yoriy asoslar yaratilgan bo'lib, dastur maqsadlari, o'quv natijalari, kompetensiyalar va yakuniy kvalifikatsiyalar tegishli hujjatlarda aniq belgilangan. Tahlil va monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini muntazam takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim dasturini yaratish va tasdiqlash tartiblarida batafsil yoritilgan. Matematika yo'nalishida fundamental matematik fanlar bloki bilan amaliy-pedagogik va metodik komponentlarning o'zaro mutanosibligi bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchilarga "Matematik, matematika fani o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi berilishi ularning chuqur nazariy bilimlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik faoliyatni amalga oshirish kompetensiyalariga ham ega bo'lishini nazarda tutadi. Fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangan bo'lib, ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida o'quv rejasi, fan dasturlari va sillabuslar tizimli ravishda shakllantirilgani hamda ularni ishlab chiqishda ish beruvchilar, soha mutaxassisleri va talabalarning ishtiroki ta'minlangani aniqlandi. O'quv rejasi va fan dasturlari milliy me'yoriy talablar, malaka talablari, Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda zamonaviy xalqaro ta'lim yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalariga mos keladi. O'quv jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, malakaviy amaliyot hamda bitiruv malakaviy ishini o'z ichiga olgan holda kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilgan. Kechki ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalar uchun mustaqil ta'lim hajmini oqilona rejalashtirish, uning bajarilishini tizimli monitoring qilish hamda o'zlashtirish natijalarini muntazam nazorat etish ta'lim dasturining kutilayotgan natijalariga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Baholash tizimining shaffofligi va akademik halollik tamoyillarining joriy etilgani o'quv jarayonining xolisligi hamda ishonchliligini ta'minlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida qabul jarayoni, qabul parametrlari, talabalar harakati hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha zarur tashkiliy va me'yoriy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Qabul mezonlari, fanlar majmuasi, baholash mezonlari, natijalarni e'lon qilish tartibi hamda apellyatsiya mexanizmlari Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-81-son Farmoni hamda filialning ichki me'yoriy hujjatlari asosida belgilangan. Qabul jarayonida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanilishi, videokuzatuv talablarining joriy etilgani, natijalarning rasmiy axborot manbalarida e'lon qilinishi hamda murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibining mavjudligi qabul jarayonining ochiqligi, shaffofligi va xolisligini ta'minlashning muhim omillari sifatida baholandi. Shuningdek, qabul parametrlari filialning mavjud infratuzilmasi va ta'lim imkoniyatlari bilan o'zaro muvofiqlashtirilgani hamda talabalarni akademik faoliyat davomida qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Talabalar faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60540100 – "Matematika" (kechki) bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi hamda boshqaruv, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar salohiyati shakllantirilgani aniqlandi. Mazkur ta'lim dasturiga 11 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgan bo'lib, ularning 8 nafari asosiy shtatda faoliyat yuritadi. Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi 87,5 foizni tashkil etib, belgilangan me'yorlardan yuqori ekani ta'lim dasturining malakali pedagog kadrlar bilan yetarli darajada ta'minlanganini tasdiqlaydi. Filial bo'yicha 109 nafar boshqaruv, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning faoliyat yuritishi ta'lim jarayonini, raqamli xizmatlarni, axborot-resurs markazi faoliyatini, texnik infratuzilmani hamda talabalar bilan ishlash tizimini samarali qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Matematika yo'nalishida professor-o'qituvchilarning fundamental ilmiy tayyorgarligi, zamonaviy pedagogik metodikalarni qo'llash tajribasi hamda kasbiy salohiyati ta'lim sifatini ta'minlashning

muhim omillaridan biri hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni rag'batlantirish bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60540100 – "Matematika" (kechki) bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv auditoriyalari, laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, raqamli ta'lim muhiti hamda infratuzilma shakllantirilgani aniqlandi. Filialda talabalar soniga mutanosib ravishda o'quv auditoriyalari, kompyuter sinflari va laboratoriyalar bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lib, 100–104,5 foizni tashkil etadi. Mashg'ulot xonalarida mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi hamda texnika xavfsizligi talablariga to'liq rioya etilishi ta'minlangan. Axborot-resurs markazi boyitilgan elektron kutubxona fondiga ega bo'lib, mavjud adabiyotlarning 79 foizi raqamlashtirilgan, ta'lim jarayoni esa HEMIS platformasi orqali raqamli muhitda tashkil etilgan. Kechki ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalar uchun elektron ta'lim resurslari va raqamli kutubxona fondidan masofadan turib foydalanish imkoniyatining yaratilgani ta'lim sifati va o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Axborot-resurs markazi fondini to'liq raqamlashtirishni yakunlash (hozirda 79 %) tavsiya etiladi.
- ✓ Kechki ta'lim shakli xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ta'lim va masofadan kirish resurslarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Axborot-resurs markazi fondini raqamlashtirishni yakunlash va elektron resurslarni boyitish.
- ✓ Kechki ta'lim shakli uchun mustaqil ta'lim va masofaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali" davlat muassasasida 60540100 – Matematika (kechki) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar shakllantirilgani, "Biznesni boshqarish va aniq fanlar" kafedrası mazkur ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida belgilangani aniqlandi. Ta'lim dasturini rivojlantirish, ichki sifatni ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturining mazmuni Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va amaldagi malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslar kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan. O'quv jarayoni nazariy va amaliy tayyorgarlikni uyg'unlashtirgan holda tashkil etilgan, baholash tizimi esa shaffoflik va akademik halollik tamoyillariga asoslangan. Talabalarni qabul qilish va ularni akademik jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirishga 11 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgan bo'lib, ularning 8 nafari asosiy shtatda faoliyat yuritadi, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi 87,5 foizni tashkil etadi va belgilangan me'yordan yuqori hisoblanadi. Filialda zamonaviy o'quv auditoriyalari, laboratoriyalar, kompyuter sinflari, elektron kutubxona hamda HEMIS platformasi asosidagi raqamli ta'lim muhiti shakllantirilgan, moddiy-texnik ta'minlanganlik darajasi belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lib, 100–104,5 foizni tashkil etadi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) va barcha indikatorlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb

topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60540100 – Matematika (kechki) bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

